



№5/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA LOGOPEDIK YORDAMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI VA SAMARADORLIGI

Ro'ziyeva Nozimaxon

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida tahsil oluvchi o'quvchilarni psixologik yondashuv asosida har tomonlama rivojlanishi ta'minlash va ularga sifatli ta'lim berish jarayonini takomillashtirishda logopedik muhitning o'рни, shu bilan birgalikda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda logopedik yordamni tashkillashtirish va buni bolalarning rivojlanish istiqbollariga qay darajada ta'sir etish ko'rsatkichlari keng qamrovli yoritib berilgan. Shuningdek, inklyuziv muhitda har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda logopedik yordamni tashkil etishning samarali shakl va metodlari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar:

Inklyuziv ta'lim, nutq buzilishlari, korreksion ishlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va psixologik yondashuv, maxsus ta'lim, rehabilitatsiya, ijtimoiylashuv.

Аннотация.

В данной статье всесторонне рассматривается роль логопедической среды в обеспечении всестороннего развития учащихся, обучающихся в инклюзивной системе образования на основе психологического подхода, и совершенствовании процесса предоставления им качественного образования, а также организация логопедической помощи в школах для детей с особыми образовательными потребностями и степень ее влияния на перспективы развития детей. Также описываются эффективные формы и методы организации логопедической помощи в инклюзивной среде с учетом индивидуальных особенностей каждого ребенка.

Ключевые слова:

инклюзивное образование, нарушения речи, коррекционная работа, инновационные технологии, педагогический и психологический подход, специальное образование, реабилитация, социализация.

Abstract.

This article comprehensively covers the role of the speech therapy environment in ensuring the comprehensive development of students studying in inclusive education based on a psychological approach and improving the process of providing them with quality education, as well as the organization of speech therapy assistance in schools for children with special educational needs and the extent to which it affects the development prospects of children. It also describes effective forms and methods of organizing speech therapy assistance in an inclusive environment, taking into account the individual characteristics of each child.

Keywords:

Inclusive education, speech disorders, correctional work, innovative technologies, pedagogical and psychological approach, special education, rehabilitation, socialization.

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida Inkluziv ta'limni rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Jamiyatning barcha a'zolari uchun teng imkoniyatlar yaratish, xususan, imkoniyati cheklangan hamda nutq rivojlanishida turli buzilishlarga ega bolalarni umumta'lim jarayoniga jalb etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, bunday bolalarga sifatli pedagogik va korreksion yordam ko'rsatish, ularning jamiyatga moslashuvini ta'minlash bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Nutq insonning eng muhim kommunikativ vositasi bo'lib, uning to'g'ri shakllanishi bolaning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Nutq rivojlanishidagi kamchiliklar esa bolaning o'qish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishiga, tengdoshlari bilan muloqotda muammolar yuzaga kelishiga hamda umumiy rivojlanishining sekinlashishiga olib keladi. Logopediya sohasi aynan nutq buzilishlarini aniqlash, oldini olish

va bartaraf etishga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi. Inkluziv ta'lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etish esa yanada murakkab va mas'uliyatli jarayon bo'lib, bu jarayonda individual yondashuv, differensial metodlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda inkluziv ta'lim muassasalarida logopedik xizmatni samarali tashkil etish, nutq buzilishlariga ega bolalarni erta aniqlash, ularga moslashtirilgan korreksion dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, logoped, o'qituvchi, psixolog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz so'zlaganidek, "Jismoniy va ijtimoiy xususiyatlaridan qat'iy nazar, har bir bolaga ta'lim olishi uchun teng imkoniyatlarni yaratib berish juda muhimdir" [1]. Bu fikr inkluziv ta'limning markaziy tamoyillaridan biridir va mavjud ta'lim tizimida logopedik xizmatlarni samarali tashkil etishni yanada muhimlashtiradi. Ushbu yondashuv nafaqat ta'lim sifati, balki jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili. Inklyuziv ta'lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilmoqda. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, uning amaliy jihatlarini hamda maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan logopedik yordamning samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan. Inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati barcha bolalar, jumladan, nutq nuqsonlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda inklyuziv muhitda ta'lim jarayonini tashkil etish bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, differensial yondashuvni qo'llash hamda pedagogik qo'llab-quvvatlashni ta'minlashni talab etishi ta'kidlanadi.

Logopedik yordamning nazariy asoslari nutq faoliyatining rivojlanish qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda nutq buzilishlarini aniqlash, diagnostika qilish va korreksiyalash jarayonlari muhim o'rin egallaydi. Ilmiy adabiyotlarda nutq nuqsonlarining turli ko'rinishlari - dislaliya, dizatriya, rinolaliya va alaliya kabi holatlar keng tahlil qilingan bo'lib, ularni bartaraf etishda tizimli va maqsadli logopedik mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi.

Pedagogik-psixologik yondashuvlar doirasida nutq rivojlanishini o'rganishda ijtimoiy omillarning ta'siri alohida ta'kidlanadi. Xususan, L.S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan yaqin rivojlanish zonasi nazariyasiga ko'ra, bolaning rivojlanishi ta'lim jarayonida kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro hamkorlik orqali samarali amalga oshadi. Mazkur yondashuv inklyuziv ta'lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasi asosida bolaning faol ishtirokini ta'minlash, uni nutqiy faoliyatga jalb etish orqali korreksion ishlarning samaradorligini oshirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda inklyuziv ta'lim muhitida logopedik yordamni tashkil etishda kompleks yondashuv zarurligi ta'kidlanadi. Bunda logoped, o'qituvchi, psixolog hamda ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik muhim omil sifatida qaraladi. Shuningdek, individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda bolaning psixologik holatini inobatga olish logopedik ishlarning samaradorligini oshiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim sharoitida logopedik yordamni to'g'ri tashkil etish nutq nuqsonlarini bartaraf etish bilan birga, bolaning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ kompetensiyasi va umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda amaliyotda uchraydigan muammolar - mutaxassislar yetishmasligi, metodik ta'minotning yetarli emasligi va individual yondashuvning to'liq amalga oshirilmaligi kabi kamchiliklar ham qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot inklyuziv ta'lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning pedagogik-psixologik asoslari hamda uning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, kompleks yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg'un holda qo'llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini inklyuziv ta'lim konsepsiyasi, nutq rivojlanishining psixologik-pedagogik qonuniyatlari hamda logopedik korreksiya metodikasi tashkil etdi. Shu bilan birga, L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi, xususan, yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi, hamda A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasi metodologik asos sifatida xizmat qildi. Ushbu nazariyalar asosida bolalarning nutqiy rivojlanishi ijtimoiy muhit va faoliyat jarayonida shakllanishi ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi - mavzu bo'yicha mavjud ilmiy manbalar, maqolalar, monografiyalar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi hamda umumlashtirildi.

- Kuzatish metodi - inklyuziv ta'lim muassasalarida nutq nuqsonlariga ega bolalarning o'quv va nutqiy faoliyati tizimli ravishda kuzatildi.

- Suhbat va so'rovnoma metodi - o'qituvchilar, logopedlar hamda ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazilib, logopedik yordamni tashkil etishdagi muammolar va imkoniyatlar aniqlashtirildi.

- 1) Pedagogik tajriba (eksperiment) metodi - logopedik mashg'ulotlarning samaradorligini aniqlash maqsadida maxsus ishlab chiqilgan korreksion dastur asosida amaliy ishlar olib borildi.

- 2) Natijalarni tahlil qilish va taqqoslash metodi - tajriba natijalari dastlabki ko'rsatkichlar bilan solishtirilib, logopedik yordamning samaradorligi baholandi.

Tadqiqot obyekti sifatida inklyuziv ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan nutq nuqsonlariga ega bolalar tanlandi, predmeti esa ushbu sharoitda logopedik yordamni tashkil etish jarayoni va uning samaradorligi hisoblanadi.

Natijalar. Inklyuziv ta'lim - o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir [2]. Ushbu ta'lim shakli har bir bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlash, ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy tenglikni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'lim tizimida maxsus pedagogik yordam, jumladan logopedik qo'llab-quvvatlash alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va ta'limiy integratsiyasining muhim sharti hisoblanadi [3]. Inklyuziv ta'lim sharoitida o'quv jarayoni an'anaviy ta'limdan farqli ravishda moslashuvchan bo'lib, unda o'quv dasturlari, metod va vositalar har bir bolaning ehtiyojiga qarab individual tarzda tanlanadi. Bu esa o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishiga, o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga zamin yaratadi.

Hammamizga ma'lum, inklyuziv ta'limda tahsil oluvchi o'quvchilar alohida ta'limga muhtojdir. Shu sababli bunday o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ularning individual xususiyatlari, rivojlanish darajasi hamda psixofiziologik holatini chuqur o'rganish zarur

hisoblanadi. Har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlari mavjud bo'lib, ularga mos ravishda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish samarali natijaga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Bunday ta'lim oluvchilar orasida nutq nuqsoniga ega bo'lgan o'quvchilar ham uchraydi albatta. Bunday bolalar nafaqat inklyuziv balki oddiy ta'lim jarayonida ham juda ko'p tarqalgan. Sababi hozirgi kunda bolalarning nutq rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning soni sezilarli darajada ortmoqda. Bularga oddiy sabab ommaviy axborot vositalaridir. Ommaviy axborot vositalarining afzalliklaridan tashqari, ko'plab salbiy ta'sirlar mavjud. Raqamli axborot vositalari haddan tashqari ko'p foydalanilganda bolalarning fikrlash qobiliyatini zaiflashtiradi, ularni ijtimoiy hayotdan ajratadi, amaliy va badiiy fikrlashiga to'sqinlik qiladi. Faoliyat, tasavvur va ijtimoiylikni boshqaradigan o'ng miyani sustlashtiradi [4]. Aynan mana shunday holatlarning kelib chiqishi achinarli holat albatta. Raqamli qurilmalardan ortiqcha foydalanish bolalarning jonli muloqotga bo'lgan ehtiyojini kamaytirib, ularning nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarda til o'rganish jarayoni ko'proq real muloqot va interaktiv faoliyat orqali shakllanadi. Shu sababli, virtual muhitning ustunligi nutqiy tajribaning kamayishiga olib keladi. Bu esa logopediya nuqtai nazaridan jiddiy muammo hisoblanadi. Shu sababdan ham bu muammoni oldini olish maqsadida bolalarga alohida logopedik yordamni muhitini yaratish kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda.

Bunday holatlarda inklyuziv ta'lim jarayonida logopedik yordamni tashkil etish juda muhim sanaladi. Inklyuziv ta'lim sharoitida logopedik yordam bolalarning ijtimoiy moslashuvi va ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishida muhim omil hisoblanadi [5]. Bundan ko'rinib turibdiki logopedik mashg'ulotlar bolalarning nutqini rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, ularning fikrlash, diqqat va xotira kabi kognitiv ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa o'quvchilarning o'z-o'zini anglashini oshirish, tengdoshlari bilan samarali muloqot qilish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkonini yaratadi. Shu sababdan, logopedik yordamni tashkil etishda o'qituvchi, logoped va psixologlar o'rtasidagi uzviy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ular birgalikda individual reja tuzib, har bir bolaning ehtiyojiga mos mashg'ulotlarni belgilash orqali ta'lim jarayonini optimallashtiradilar. Natijada, logopedik yordam nafaqat nutqni tuzatishga, balki bolalarning ijtimoiy, emotsional va akademik rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Yuqorida takidlanganidek logopedik yordam nutq talaffuzida kamchilik bo'lganligi sababli amalga oshiriladi. O'zi nutq buzilishi nima ?

Nutq buzilishlari - bu nutqning normal rivojlanishi va funktsiyasining buzilishi bo'lib, turli sabablar natijasida yuzaga keladi [6]. Bunday holatda bolaning nutqi qaysidir artikulyatsion a'zosining faoliyatini buzilishi natijasida yoki markaziy nerv sistemasi ishining buzilishi natijasida yuz berishi mumkin. Bu holatni keltirib chiqaruvchi sabablar esa turlichadir. Albatta bu nuqsonlarni erta aniqlash va korreksiya ishlarini amalga oshirish inklyuziv ta'lim jarayonida ayniqsa muhimdir.

Inklyuziv ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi turli nutq nuqsoniga ega bolalarda kechadigon jarayonlar birinchi navbatda kuzatiladi. Nutq kamchiliklarini erta diagnostika qilish hamda tizimli logopedik korreksiya olib borish bolaning bilish faoliyati, muloqot ko'nikmalari va psixik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [7]. Boladagi kamchilik aniqlangandan so'ng esa unga to'g'ri tashxis qo'yish va tizimli korreksiya ishini amalga oshirish ayniqsa muhimdir. Bu holatda birinchi navbatda pedagogning mahorati va saviyasi talab etiladi, ya'ni pedagog bola bilan ochiq muloqotni hosil qilish bilan bir qatorda uning psixikasiga monand turli korreksiya jarayonlarini

tanlay bilishi kerak. Shu bilan birgalikda turli pedagoglar va ota ona bilan ham o'zaro muloqot jarayonini yo'lga qo'yish pedagogning ishini yanada osonlashtiradi.

Asosan bolalarga inklyuziv ta'lim muhitida logopedik yordamni qo'llash juda katta mehnat va mas'uliyatni talab qiladi. Chunki har bir bolaning holatidan kelib chiqib korreksiya ishlarini olib borish, bolaning to'g'ri talaffuzga o'rgatibgina qolmay, uni ta'lim jarayonida qo'llash uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayonlarni ayniqsa inklyuziv ta'lim sharoitida qo'llash bolalar bilan yanada tizimli korreksiya ishini yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratadi. Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir[8]. Bunday ta'lim jarayonida differensial va individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, o'qituvchi har bir bolaning qobiliyati, rivojlanish darajasi va o'zlashtirish sur'atini hisobga olib, mos topshiriqlar beradi, zarur hollarda qo'shimcha yordam ko'rsatadi. Shu orqali nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va mustaqil fikrlashini rivojlantirish ham ta'minlanadi. Bu jarayon albatta faol inklyuziv tizimni sifatli tashkillanishi bilan bir qatorda undagi logopedik jarayonlarni ham bir tekisda amalga oshirishda bir nechta samarali natijalarni beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim sharoitida logopedik yordamni samarali tashkil etish alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarning nutqiy, psixologik hamda ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Logopedik yordamning pedagogik-psixologik asoslarda tashkil etilishi bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olish, ularning nutq nuqsonlarini o'z vaqtida aniqlash va korreksion ishlarni tizimli ravishda olib borishga xizmat qiladi. Shuningdek, inklyuziv muhitda logoped, pedagog, psixolog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik ta'lim samaradorligini oshiradi hamda bolaning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va individual ta'lim dasturlaridan foydalanish logopedik yordam sifatini yanada yaxshilaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim tizimida tashkil etilgan logopedik yordam bolalarda nutq kamchiliklarini bartaraf etish, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va ularning o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Shu sababli, inklyuziv ta'lim muassasalarida logopedik xizmatni yanada takomillashtirish, mutaxassislar malakasini oshirish hamda metodik ta'minotni kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zb. Res. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning YUNESKO Bosh konferensiyasi 43- sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi
2. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova "Inklyuziv ta'lim" darslik, Toshkent – 2024, 103-b
3. Малофеев Н.Н. Специальное образование в меняющемся мире. – Москва: Просвещение, 2010. 89-b
4. Tanriverdi H, Sağır S. O'rta maktab o'quvchilarining ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish maqsadlari va ularning ijtimoiy tarmoqlarni o'zlashtirish darajasining o'quvchilar muvaffaqiyatiga ta'siri. Adiyaman universiteti ijtimoiy fanlar instituti jurnali 2014;7(18):775-822.
5. UNESCO. Inclusive Education: The Way of the Future, Paris – 2009
6. M.K. Sulaymanova va U.M. Utbasarova "Nutq buzilishlarining etilistik omillari va ularning tasnifi: zamonaviy yondashuvlar", Modern Education and Development Journal – 2025
7. Левина Р.Е. Основы теории и практики логопедии. – Москва: Просвещение, 1968. 54-b.
8. Педагогик атамалар луғати. – Т.: "Фан", 2008. –Б.47

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Raxmatullayeva Gulnozaxon Mavlanjonovnana

“IJTIMOIY-MA’NAVIY ODOB” TUSHUNCHASI: PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAHLIL VA TARKIBIY KOMPLEMENTLARI	3	6
--	---	---

Umarov Azizbek Vaxobovich

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MEDIAMUHITNI RIVOJLANTIRISH VA MEDIAKOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH	7	12
--	---	----

Ho’jamberdiyeva Fotima Ne’matovna

BOSHLANG’ICH TA’LIMDA ILMIY-AXBOROT MATNLARI BILAN ISHLASH KOMPETENSIYALARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	13	17
--	----	----

Yusupova Umida Zayniddin qizi

BOSHLANG’ICH SINIF O’QISH DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH METODIKASI	18	21
---	----	----

Rashidxon Uulu Atabek

PEDAGOGIK FANLAR BO’YICHA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARI MAZMUNINING TAVSIFI	22	32
--	----	----

Gimayeva Liliya Maskurovna, Atajonova Saidaxon Borataliyevna

TEXNIKA OLIYGOHLARINING IMKONIYATLARI CHEGARALANGAN TALABALARIDA ILMIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI (“MODELLASHTIRISH” FANI MISOLIDA)	33	39
---	----	----

Yusupova Liliya Fanovna, Atajonova Saidaxon Borataliyevna

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA “ELEKTROTEXNIKA” FANINI O’QITISH JARAYONIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI	40	46
--	----	----

Umarov Azizbek Vaxobovich

PEDAGOGIKA TA’LIMIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI	47	51
--	----	----

Djurayeva Feruzaxon Abdumuxtorovna

VIRTUAL LABORATORIYALARNING JAMIYATDAGI VAZIFALARI VA TA’LIM MUASSASALARIDAGI AHAMIYATI	52	57
---	----	----

Axmadjonov Muhammadyusuf Raxmatullo o’g’li

QO’L JANGI SPORT TURINING JANG HAMDA O’Z-O’ZINI HIMOYA QILISH YO’NALISHLARINING O’ZARO BOG’LIQLIGI	58	63
--	----	----

Ro’ziyeva Nozimaxon

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA LOGOPEDIK YORDAMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI VA SAMARADORLIGI	64	68
---	----	----

Mahmudova Maftuna Hamza qizi

MEDIA MAKONDA GENDER REPREZENTATSIYASI VA MEDIASAVODXONLIK O’RTASIDAGI INTEGRATSION JARAYONLAR	69	74
--	----	----

Sodiqov Elbek Ne’matillo o’g’li

SPORTNING JAMIYATDAGI IJTIMOY AHAMIYATI VA RIVOJLANISH OMILLARI	75	77
---	----	----

